



Farg'onaazot
aksiyadorlik jamiyati



fargonaazot_uz



fargonaazot.uz



info@azot.uz



www.azot.uz



AO Farg'onaazot



t.me/fargona_azot

Gazeta 1979-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

6-son (1718)
2023-yil,
26-IYUN.

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta

**ASSALOMU ALAYKUM,
AZIZ DINDOSHLAR,
HURMATLI
ISHCHI-XODIMLAR!**

Muborak Qurbon hayiti arafasida Sizlarga, barcha mo'min-musulmonlarga mustahkam sog'liq, xonadonlaringizga qut-baraka, totuvlik va yurtimizga tinchlik tilayman. Ushbu qutlug' ayyomda shukronalik, mehr-oqibat, shafqat, birdamlik tuyg'ulari barq urib, iymonlar mustahkamlanadi. Qomu qarindoshlar, ota-ona, bobo-momolarimiz holidan xabarlar olinadi, yetim-yesirlarga, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj oilalarga yordam qo'lli cho'ziladi. Har bir musulmonlar savob ishlarga oshiqadilar. Shunday ekan, men korxonamiz jamoasini savobli ishlarga qo'l urishlariga, arazlarni unutib mehrga yo'l ochishlariga undab qolaman.


Barchaga ma'lumki, Islom dinimiz ezgulik, oqibat va o'zaro hurmatni targ'ib qilib kelgan. Bizning ajdodlarimizdan qanchadan-qancha avliyolar, olimu ulamolalar, tasavvuf namoyandalari, buyuk zotlar chiqqan. Shuning uchun bizlar ham ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishimiz, o'zimizdan ijobiy iz qoldirishimiz lozimdir. Farzandlarimizni vatanparvar, halol inson qilib tarbiya qilish burchimizdir.

QADRLI HAMKASABALAR!

Barchangizni yana bir bor Qurbon Hayiti bilan muborakbod etaman. Yurtimizga doimo sihat-salomatlik, tinchlik-xotirjamlik, baxt-saodat hamroh bo'lsin! Ayyomingiz qutlug' bo'lsin!

**Hurmat bilan Dilshod MANNONOV,
"Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyati
boshqaruvi raisi.**

**Qurbon hayiti
muborak bo'lsin!**



Ma'lumki, so'nggi yillarda Davlatimiz rahbari tomonidan ommaviy axborot vositalariga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Xattoki, Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida so'z erkinligi — huquqiy davlat mezonini ekanligi belgilab qo'yilganligi hozirgi kunda OAV vakillariga, jamoatchilik nazoratiga katta yo'l ochganligining ko'rsatkichidir. Mazkur kasb vakillari faoliyati to'g'risida 27 iyun — matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni arafasida so'z yuritishni joiz deb topdim.

Mamlakatimizda jurnalistik faoliyatga ochilayotgan imkoniyatlar to'g'risida so'z yuritir ekanimiz bejiz ijtimoiy tarmoqlardagi faolliklar, jurnalistik surishtiruvlar hamda jamiyatimizda qabul qilingan qarorlar yodga keladi. Zero, bu ishlar zamirida xalq manfaati, huquqiy nazorat yotganligi, ayniqsa, yechimi bo'lmayotgan yoki inson o'zi hal qila olmayotgan muammolarni omma o'rtasida hal bo'layotganligi, nohaqiqatlar, "yopib yuborilayotgan ishlar"ni yoritilayotganligi muammolarni qisman

yoki to'liq hal etilishiga olib kelmoqda. Bu ham bo'lsa davlatimiz so'nggi yillarda erishgan katta yutuqlaridan biri deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda, Shavkat Mirziyoyevning "Jurnalist hamda blogerlar jamiyatni va amaldorlarni "tarbiya qilayapti". Ijro organi rahbari biron qaror qabul qilishdan oldin ilgari hech narsa o'qimasdi, hozir kamida 10 marta o'qiydi. Jurnalistlar menga qanday baho beradi, blogerlar nima deydi, degan savollarni o'ziga beryapti. OAV vakillari islohotlarimizga juda katta ijobiy ta'sirini ko'rsatyapti" — degan so'zlari naqadar to'g'ri ekanligini

anglab yetamiz. Shuni bilish zarurki OAV vakillari mamlakatni "quyishqondan chiqib ketishini", "o'zboshimchilik", "lavoziimi, jinsi, vakolatidan foydalanib tazyiq o'tkazish", "tanish-bilishchilik va korruptsiya"ni urug'lab ketishiga qarshi kurashuvchi katta kuchdir. Bejizga ular borasida to'rtinchi hokimiyat deyilmaydi. — «Men, haqiqat va adolatni o'z e'tiqodi deb biladigan barcha jurnalistlarni, islohotlarning faol ishtirokchilari, deb bilaman va ular hamisha Prezident himoyasida bo'ladi. Bu fikrni bugun yana bir bor ta'kidlayman» — Sh.M. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

E'zozxon ABDULLAYEVA.

MEN QADRLAB, ARDOQLAGAN KASB

yoki oddiy hayot haqiqatlari

"Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyatining ko'p ming sonli ahil va inoq jamoasida uzoq yillar davomida samarali faoliyat ko'rsatib, kimyogarlik kasbini oilaviy sulola sifatida davom ettirayotgan hamkasblarimiz ko'pchilikni tashkil etadi.

Shulardan biri korxonaning faol va fidoyi vakillaridan biri — Bekmirzayevlar sulolasidir. Bugun sulola asoschilaridan biri Lutfullo Bekmirzayevning mehnat faoliyatiga alohida to'xtalib, an'anani izchil davom ettirib kelayotgan oila sobibi bilan suhbatlashamiz.

Zero, korxonada ko'p yillar mobaynida sidqidildan mehnat qilib, "Ustoz-shogird" an'analari davom ettirayotgan, bir umr mashaqqatli, shu bilan birga sharafli kasbini ardoqlab kelayotgan bu kabi hamyurtimizning hayoti, mehnat faoliyati barchamizga, ayniqsa jamoamizning yosh ishchi-mutaxassislari uchun o'ziga xos ibrat va namunadir.

— Aytingchi, oilada nechta farzand bo'lgansizlar?

— Oilada ikki farzand. Bir o'g'il va bir qiz kamolga yetganmiz. Bolaligimizdan

oilada mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashgani sababli yaxshi kasb-hunar egasi bo'lishga astoydil harakat qilganmiz.

— Ma'lum bo'lishicha, farzandlaringiz ham Siz bilan bir jamoada mehnat qilishar ekan. Bu har qanday ota uchun faxr bo'lsa kerak?

— Albatta. Haqiqatdan ham farzandlarim zavodda ishlashadi. To'ng'ich o'g'lim Elektr ta'minot sexida bo'lim boshlig'i bo'lib ishlaydi, ikkinchi o'g'lim esa Jihozlarni markaziy ta'mirlash sexida usta sifatida mehnat faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

— Lutfillo Turg'unbayevich o'zingizni mehnat faoliyatingizga to'xtalib o'tsangiz?

— Men mustaqillikkacha bo'lgan davrda to'rt-besh yil "Progress sovxoz"da ishlaganman. Keyin istiqloq yillari arafasida, ya'ni 1989-yilning kuz faslida qadrdon zavodga ekspeditor bo'lib ishga kelganman. O'shandan buyon "Farg'onaazot" AJ hayotimning mazmuniga, kimyogarlik sevimli kasbimga aylandi.

O'sha davrda meva-sabzavot saqlashga ixtisoslashgan xizmat xo'jalik sexiga qaragan. 1990-yil 1-yanvardan shu yerdan ombor mudiri bo'lib ishlaganman. Bu vazifada 1997-yilgacha faoliyat olib bordim. 1997-yili iyul oyidan oziq-ovqat xizmati bo'limi (ORP)ga sex boshlig'i o'rinbosari bo'lib ishga o'tganman. Avval oziq-ovqat xizmati bo'limi umumiy ovqatlanish shoxobchalari tarmog'iga qarar edi. Zavod ixtiyoriga o'tganidan so'ng barcha oziq-ovqat mahsulotlari biz orqali tarqatiladigan bo'ldi. 2001-yilgacha ushbu lavozimda ishlaganman.

(Davomi 2-betda).



MEN QADRLAB, ARDOQLAGAN KASB

yoki oddiy hayot haqiqatlari

(Boshlanishi 1-betda).



2001-yil sentabr oyida ushbu sexga boshliq bo'ldim va shu kunga qadar Ishchilar ta'minoti sexida rahbar sifatida ishlab kelyapman. Hozirgi kunda 7 ta oshxona, 2 ta sut tarqatish shoxobchalarida 130 nafar oshpaz va oshxona xodimlari korxona ishchi xodimlariga tunu kun xizmat ko'rsatishmoqda.

— **Ustoz hamkasblarning xotiralashicha, ish faoliyatingizda qanday qiyinchiliklarga duch kelgansiz?**

— Men zavodga ishga kelgan paytimizda juda og'ir davr bo'lgan. Chunki bu yillar amalda sobiq ittifoq parokanda bo'lgan davr edi. Mamlakat endi mustaqil bo'lib, oyoqqa tura olgani yo'q edi. Odamlar ishsiz, kundalik zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari tanqis, bir so'z bilan aytganda, hamma o'z yog'iga o'zi qovurilib yashayotgan zamon edi. Bu qiyinchilik va mashaqqatlar sobiq tuzumdan ajralib chiqqan barcha yosh mamlakatlari boshiga tushgan, O'zbekiston ham mazkur muammolar girdobida qolgandi.

O'shanda zavodda to'rt yarim ming ishchi-mutaxassis ishlar, ularning moddiy ta'minoti bizning zimmamizga tushgandi. Turdosh korxonalar bilan aloqalar uzilgan, markazlashgan ta'minot to'xtatilgan, ishlab chiqarilgan mahsulot bozori ham kasodga uchragandi. Mana shu yillarda direktorimiz Abduhoshim Abdullayevning tashkilotchilik qobiliyati, fidoyiligi tufayli har qanday muammoni yechimini topishga harakat qildik. Birgina misol korxonalar kimyoviy o'g'it olardi, lekin o'g'itning pulini bermasdi. O'g'itning puliga biz yalinib yurib, oziqina-oziqinadan oziq-ovqat mahsulotlari olardik. Yordamchilar bilan borib o'zimiz qoplab bir kunda bir qop guruch olgan mahaliniz ham bo'lgan. Bitta fiyagada paxta yog' olib kelib, korxona oshxonalariga uch kilodan tarqatgan vaqtimiz ham bo'lgan. Bunday mahsulotlarning har kunligini shu kunning o'zida olib kelardik. Oddiy idish-tovoq masalasi ham muammo bo'lgan. Shu sababli o'sha davrlarda oylik berilmas, ish haqi evaziga oziq-ovqat mahsulotlari berilardi. Mamlakatimiz aholi singari korxonamiz, uning ishchi-xodimlari ham ana shunday qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz yashagan. Kasbimizga mehmimiz yuksak bo'lganligi uchun hech qachon osonroq boshqa ishning etagidan tutib ketishni o'ylamaganmiz.

Shu bois, bugun bemalol ayta olamizki, hayoti, taqdirini "Farg'onaaazot" AJ bilan bog'lagan minglab hamyurtlarimiz, millatlararo do'stlik oilasida mehnat qilayotgan jamoadoshlarimiz uchun kimyogarlik sevimli, faxrli kasbga aylangan.

— **Zavodga ishga kelganingizda Sizga birinchi ustozlik qilgan inson kim bo'lgan, korxonada kasb sir-asrorlarini o'rgatgan ustozlarni eslaysizmi?**

— Albatta, bunday insonlar, ustozlarni hamisha faxr bilan esga olaman. Korxonaga meni ishga olgan odam Ja'barxon aka Ahrorov bo'lgan. Dastlab oziq-ovqat xizmati bo'limi (ORP) ga ishga o'tgan davrimda Alijon Xamidov rahbarimdan juda ko'p kerakli narsalarni o'rgandim. Keyinchalik menga ish o'rgatgan ustoz Abdupatto Solijonov edi. Shu bois uni birinchi ustozim sifatida qadrlayman. Abdupatto To'lanovich 1992-yili "Farg'onaaazot" aksiyadorlik jamiyatiga direktor o'rinbosari bo'lib yangi tayinlangan vaqtda zavodni yurgizish va xomashyo olish maqsadida hatto jamoa xo'jaliklarida yetishtirilgan karamlarni o'zimiz yig'ishtirib, o'zimiz yuklab Ukrainaning Donetsk shahriga olib borganmiz. Darhaqiqat, maqolamiz avvalida eslab o'tganimdek, mustaqillikning ilk yillari barcha singari bizning korxonamiz jamoasi uchun ham oson bo'lmagan. Korxona tarixida eng og'ir davrlarda rahbarlik qilgan ustozim Abduhoshim Abdullayevning yordamlari beqiyos bo'lgan.

— **O'z navbatida kimlarni shogird, kasbingizning munosib davomchisi sifatida e'tirof etasiz?**

— Shogirdlarim juda ko'p va ular bilan haqli ravishda faxrlanaman. Yonimda yurib menga yaqindan yordam bergan Hasanboy Tojiyev korxonamizning bosh oshpazi. U korxona ishchi-xizmatchilari

va mehmonlarimizni shirin ovqatlar bilan siylaydi. Shavkat Qurbonov korxonaning tajribali iqtisodchilari sirasiga kiradi. U bugungi kunda ham mas'uliyatli vazifada siddiqidan mehnat qilmoqda. Shavkat hozirda ishchilarni oziqlantirish sexi boshlig'i o'rinbosari. Tohir Kenjaboyev, Zafar Bekmirzayev ta'minotchi (ekspeditor) bo'lib ishlaydi. Bularning barchasi korxonaning asl fidoyilari: og'ir damlarda ishni tashlab qochib ketmagan, hamisha yelkama-yelka ishlab kelayotgan bu insonlarga har qancha rahmat aytsak arziydi.

— **O'zingizni yoshligingizni xotirlab, yangi avlod vakillarining orzu-intilishlari haqida qanday fikrdasiz?**

— Bizning yoshligimiz bilan hozirgi davrning yoshlari o'rtasida juda katta farq bor. Bizning davrda katta qiyinchiliklar bo'lgan va shunga yarasha mehnat qilish zarur edi. Hozirgi yoshlar dorulomon kunlar uchun shukr qilishi, orzu-maqсадlari, intilishlari shunga yarasha bo'lishi lozim. Chunki bugun hamma sharoit bor, o'qisa, kasb-hunar egallasa, xohlagan joyga borib ishga kirishi uchun imkoniyatlar mavjud.

Bizda hatto oddiy ishga kelib ketish uchun sharoit bo'lmagan. Farg'ona tumani markazi - Vodil qishlog'idan qishda ikkita-uchta mashinaga o'tirib kelar edim. Korxonaning ichki selektor yig'ilishiga ulgurmas edim. Abuhoshim Abdullayev juda talabchan direktor bo'lsa ham meni tushunar edi, doimo qo'llab quvvatlab kelgan. Ustozlarimni ko'rsatgan yordamlari va yo'l-yo'riqlar, ishga va kasbimga bo'lgan muhabbatim, bardoshim, sabrim tufayli barcha qiyinchiliklarni yengib o'tdim.

Hozirgi yoshlarga esa faqat havas qilish mumkin. Deyarli har bir oila va farzandlarimizda zamonaviy mashina bor. Korxona zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlandi. Ish sharoitlar, qo'shimcha mukofot va rag'batlantirishlar doimo berib boriladi. Har bir bayramda madaniy tadbirlar tashkil etiladi. Ichki turizm doirasida yurtimizning ko'ngilochar maskanlariga sayohatga olib borishadi. Bizning vaqtimizda Buxoro, Samarqandlarga borish shirin orzu bo'lgan. Samatoriya-kurortlarga yuborishyapti, nafaqat bugun mehnat qilayotganlar, balki faxrliylar ham hamisha e'tibor va e'zozda.

Hayot oqar daryo deganlaridek, yillar to'xtovsiz o'tib bormoqda. Mana shu korxonada mehnat qilayotganimga ham 34 yil bo'libdi. Bugun barchasi uchun taqdirimdan roziman. Farzandlarim yonimda o'z sohasida ishlab kelishyapti. Oilamiz zavodda hurmat-e'tiborga ega. Bizda sharoit bo'lmaganligi uchun o'zimiz istagan ta'lim dargohlarida o'qiy olmaganmiz. Boisi men o'qishga kirsam, onam va singlim yolg'iz qiyнал qolishardi. Chunki ikki yil armiyada bo'lgan vaqtmda rosa qiyналishganlarini eshitganman. Mehnatim orqali bugun hayotda o'z o'rimni topib, hurmat-e'tiborda bo'lib ishlab kelayotganimdan behad mamnunman.

— **Shu kunlarda kutub oldingiz. Sizni 60-yillik yubileyingiz bilan korxona rahbariyati, tahririyat jamoasi va o'z nomimdan samimiy tabriklayman. Suhbatimiz yakunida barchaga o'z tilaklaringizni bildirsangiz?**

— Meni barcha hamyurtlarimiz va asosan yoshlarga tilagim shuki, u ham bo'lsa, insonlar, shu jumladan yoshlar bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishsin. Bir-biriga ishonib, suyanib yashashlarini istayman. Elu yurtda bir-biriga bo'lgan o'zaro ishonch yuksak bo'lsa, fayz-baraka bo'ladi. Bugungi kunimizdan xotirjam va baxtiyor, ertangi hayotimizdan ko'ngil to'q bo'lib yashaymiz.

O'z navbatida, "Farg'onaaazot" aksiyadorlik jamiyati jamoasiga, qadrdon korxonamizga ko'z tegmasin. Ko'p yillar davomida yana barchamiz bir safda mehnat qilaveraylik. Mushtarak maqsadlar – xalqimiz farovonligi, yurt ravnaq-rivoji yo'lidagi yutuqlarimiz bardavom bo'laversin.

Suhbatni E'zozxon ABDULLAYEVA, "Kimyogar" gazetasi bosh muharriri yozib oldi.

Huquq

XOTIN-QIZLAR VA BOLALAR HUQUQLARI, ERKINLIKLARI HAMDA QONUNIY MANFAATLARI ISHONCHLI HIMOYADA

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan 2023-yil 11-aprelda "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni imzolangan.

Qonunda ta'kidlanishicha, mamlakatimizda xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'rvonlikdan ishonchli himoya qilishning institutsional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga, bolalar orasida nazoratsizlikning va ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga, shuningdek, nogironligi bo'lgan bolalarni hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga bugungi kunda huquqni qo'llash amaliyotida xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish bilan bog'liq masalalarda bir qator muammolar mavjud. Xususan, xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga daxl qiluvchi jinoiy qilmishlar uchun mutanosib sanksiyalar belgilanmagan, xotin-qizlarni shilqimlik va zo'rvonlikdan himoya qilishning huquqiy kafolatlari mavjud emas, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan shaxsga davlat himoyasini taqdim etuvchi o'rningning amal qilish muddati (o'ttiz kun) xotin-qizlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari yetarli darajada himoya qilinishini ta'minlash imkonini bermaydi, alimentlarni to'lamaganlik uchun jazo sifatida jarima solinishi yanada ko'proq moliyaviy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Ushbu Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi qonunlariga xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohada o'z huquqlari va manfaatlarini amalga oshirishda qo'llab-quvvatlash masalalarini tartibga soluvchi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni nazarda tutuvchi, shuningdek, bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlab qo'yuvchi o'zgartishlar kiritilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining "Zo'rlab nomusga tegish", "Zo'rlik ishlatib, qo'rqitib yoki jabrlanuvchining oqizligidan foydalanib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish", "Shaxsni jinsiy aloqa qilishga majbur etish", "O'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish", "O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy yoxud boshqacha tarzda manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish", "O'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatmay uyatsiz-buzuz harakatlarni sodir etish", "Voyaga yetmagan shaxs tasviflangan yoki tasviflangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek uni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoxud voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etish" jinoyatlari yangi taxrida bayon etilib jazo choralarini kuchaytirilgan.

Jinoyat Kodeksi yangi mazmundagi 1261-Oilaviy (maishiy) zo'rvonlik" va 1413-"Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilish" deb nomlanuvchi moddalar bilan to'ldirilgan.

1261-modda 7 qismdan iborat bo'lib, mazmuniga ko'ra xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan

shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo'rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish, do'pposlash orqali sog'liqning turli darajadagi tan jarohatlari yetkazish harakatlarni sodir qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

"1413-modda mazmuniga ko'ra Shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilish, ya'ni shaxs tanasining va (yoki) jinsiy a'zolarining yalang'och holdagi foto- va (yoki) videotasvirini o'z ichiga olgan axborotni uning rozilgisiz tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish yoxud bunday axborotni tarqatish bilan qo'rqitish harakatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi yangi 411- Shahvoniy shilqimlik qilish, 477- Ota-onaning o'z voyaga yetmagan bolalariga vasiy yoki homiy tayinlash bo'yicha majburiyatlarini bajarmasligi, 592 - Oilaviy (maishiy) zo'rvonlik moddalarini bilan to'ldirilgan.

"411- modda mazmuniga ko'ra Shahvoniy shilqimlik qilish, ya'ni shaxsga nisbatan uning uchun nomagbul bo'lgan hamda uning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlaydigan, shaxsning tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tasviflashda, imo-ishora qilishda, teginshda, chaqirishda ifodalangan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan harakatlarni bir marta qo'pol ravishda yoki bir necha marta sodir etganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda, xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladigan jazo chorasi belgilangan.

"477-modda mazmuniga kura Ota-ona yashash joyida vaqtincha bo'lmaganda yoxud ular o'z ota-onalik majburiyatlarini bajara olmaydigan davr uchun voyaga yetmagan bolalariga vasiy yoki homiy tayinlash bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha, xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi belgilangan.

592-modda mazmuniga ko'ra -xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqni amalga oshirishga to'sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni, qo'rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish harakatlarni sodir etganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga, xotinini (erini), sobiq xotinini (sobiq erini), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsni yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsni

do'pposlash, ushbu shaxslarga sog'liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga olib kelmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga muxim o'zgartishlar va qo'shimcha kiritilib "ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola" tushunchasi kengaytirilgan. Shunga kura — ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi yoki cheklanganligi, bedarak yo'qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi yoxud muomalaga layoqati cheklanganligi, bolani tarbiyalashdan yoki uning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganligi, shu jumladan, uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'uruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortganligi yoxud ota-ona qaramog'i mavjud bo'lmagan boshqa holatlar sababli ota-ona yoki yagona ota (ona) qaramog'idan mahrum bo'lgan bola —"ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola" deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga ta'kid etish tushunchasi kiritilgan. Uning mazmuniga kura, "ta'qib etish — jabrlanuvchining xohish-irodasiga qarshi, uning ikki yoki undan ortiq marta qarshilik ko'rsatganligiga yoxud ogohlantirganligiga qaramay sodir etiladigan, jabrlanuvchini qidirishda, u bilan og'zaki, telekommunikatsiya tarmoqlari vositasida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'i orqali yoki boshqa usullarni qo'llash yo'li bilan muloqotga kirishishda, uning ish, o'qish va (yoki) yashash joyiga borishda ifodalangan hamda jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotirlik qo'zg'atadigan harakatlar"dan iboratligi belgilangan.

Konun bilan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlari kengaytirilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi, "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi, "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan.

Mazkur Qonunning qabul qilinishi xotin-qizlar va bolalarga nisbatan shilqimlik hamda zo'rvonlikning oldini olishga, oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga, bolalar va xotin-qizlar huquqlari bilan bog'liq xalqaro indekslarda mamlakatimizning o'rini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda, bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya, bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tumanlar (shaharlar) komissiyalari faoliyatining mustahkam huquqiy asosini yaratadi.

Mahmud QAYUMOV, yuridik bo'limi boshlig'i o'rinbosari.

Yoz o'tmoqda soz

“KIMYOGAR” BOLALAR DAM OLISH MASKANI O‘Z ESHIKLARINI OCHDI

Korxonaning “Kimyogar” bolalar dam olish maskani o'z faoliyatini boshlaganligi bois, 285 nafar ishchi-xodimlar farzandlari mamnuniyat bilan oromgohga yo'l oldilar.

Oromgoh boshlanguniga qadar jamiyat tomonidan yotoqxonalar, ma'muriy va maishiy binolar ta'mirlandi, hudud obodonlashtirildi. Shu o'rinda, bolalar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun Toshkent va Farg'ona shaharlaridan teatr jamoalari taklif etilgan bo'lib, ular ta'til davomida o'z chiqishlari bilan bolajonlarni shod etadilar. Turli tanlovlar, viktorinalar va sport tadbirlari tayyorlandi. Bu sport musobaqalari uchun sport anjomlari xarid qilindi. Bolalarni muntazam ravishda turli xil, vitaminlarga boy 4 mahal ovqat bilan ta'minlash uchun mohir oshpazlar jalb etildi. Oromgohdagi badiiy adabiyotlarga boy kutubxona, 2 ta boshlang'ich va o'rta maktab yoshidagi bolalarga mol'jallangan suzish havzasi esa doimo bolalar xizmatida.

Asosiysi, bolalarni sog'lig'idan kun-u tun boxabar bo'lish, ularni ko'zdan kechirish maqsadida sog'liqni saqlash markaziga tajribali peditr va hamshira jalb etilgan. Maktab o'quvchilarini hordiq chiqarishlarini sifatlil tashkil etish uchun korxona ma'muriyati bolalar bilan ishlashga katta tajribaga ega kadrlarni jalb qildi. Ma'lumot o'rinda, "Kimyogar" bolalar dam olish maskanining xodimlaridan tashqari, 43 nafar mavsumiy ishchi bolalarga g'amxo'rlik qiladi. Bir so'z bilan aytganda, bolajonlar yozgi ta'tillarini mazmunli va maroqli o'tkazishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lib, bolalar oromgohda naqafat jismoniy, balki ma'naviy va ma'nan ham hordiq olib qaytadilar.

O'z muxbirimiz.



Лето-2023



покажут свои постановки. Также подготовлены различные конкурсы, викторины и спортивные мероприятия. Для этих целей за счёт профсоюзного комитета предприятия были закуплены спортивные принадлежности. Кроме того, в распоряжении детей имеется

В ДНИ ЛЕТНИХ КАНИКУЛ ДЕТСКИЙ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫЙ КОМПЛЕКС «КИМЁГАР» ОТКРЫВАЕТ СВОИ ДВЕРИ ДЕТЯМ

Лето это - время, когда дети мечтают об отдыхе, играх на свежем воздухе, встрече с новыми друзьями. С началом летних каникул у каждого родителя встаёт вопрос где и как организовать отдых своих детей. В этом случае на помощь приходят детские оздоровительные лагеря, которых в нашей стране немало. Это и детские оздоровительные лагеря находящиеся в системе Федерации профсоюзов Узбекистана, а также находящиеся в системе других организаций. В сегодняшней газетной статье речь пойдёт о детском оздоровительном комплексе «Кимёгар» акционерного общества «Farg'onaazot». В ней мы постараемся осветить вопросы организации детского отдыха в свете последних постановлений и указов главы нашего государства.

В последние годы у нас в стране осуществляется определенная работа по организации отдыха детей, их оздоровлению и содержанию свободного времени. В частности, в целях системной и эффективной организации деятельности детских лагерей на основании постановления Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по системной организации отдыха и дальнейшему совершенствованию работы по оздоровлению детей» была создана Республиканская комиссия по вопросам системной организации отдыха и оздоровления детей. Управление в данной сфере организовано на основе единой системы. Предпринимаемые государством меры позволяют поднять на качественно более высокий уровень заботу о здоровье и всестороннем развитии подрастающего поко-

ления. Понимая всю важность принятых нашим Президентом решений, руководством предприятия был принят комплекс мер по системной и эффективной организации деятельности, надежной и бесперебойной работе систем бытового, коммунального, транспортного и медицинского обслуживания ДОК «Кимёгар». В частности, в течении всего мая месяца шла интенсивная подготовка лагеря к летнему сезону. За этот период был осуществлён ремонт спальных корпусов, административно-бытовых помещений, медицинского пункта. Усилиями специалистов предприятия были приведены в полный порядок система электро - водоснабжения и канализации. Также была проведена работа по благоустройству и озеленению территории ДОК «Кимёгар». К данным работам помимо работников ремонтно-строительного цеха и хозяйственного цеха были привлече-

ны работники 22-структурных подразделений общества. Кроме того, для транспортного обслуживания оздоровительного комплекса предприятием были выделены автомобили. В результате выполненных работ, к концу первой декады июня лагерь был полностью готов для того чтобы принять детей на период летних каникул. Таким образом 13 июня текущего года состоялся первый заезд детей в детский оздоровительный комплекс «Кимёгар», для организованной отправки детей Автогосударственным предприятием были выделены 7 вместительных автобусов «Нефаз». В первую смену в детском оздоровительном комплексе предприятия интересно и социально значимо проведут время более 285 детей заводчан. Для организации культурно-досуговых мероприятий театральные коллективы из Ташкента и Ферганы, которые



богатая библиотека с художественной литературой. В ДОК «Кимёгар» имеется столовая, где опытные повара готовят различные горячие блюда и салаты, к слову в столовой организовано 4-х разовое питание. В жаркие летние дни дети особенно любят принимать водные процедуры, а для этого в оздоровительном комплексе имеется два бассейна для детей младшего и старшего школьного возрастов. Охрана здоровья детей имеет первостепенное значение, поэтому в оздоровительном комплексе функционирует медицинский пункт, состоящий из опытного врача педиатра и медицинской сестры.

ных работника. Подводя итог можно уверенно сказать, что, отправляя ребенка в ДОК «Кимёгар», родители могут быть уверены, что их ребёнок проведет лето не только весело, но и с пользой. Здесь дети научатся не только общаться со сверстниками, но и быть самостоятельными и ответственными. Таким образом, детские оздоровительные лагеря - это отличная возможность обеспечить своему ребенку качественный отдых и интересное времяпрепровождение летом. Они помогают детям развиваться, получить новый опыт и знания, а также подружиться со своими сверстниками.

КАК УБЕРЕЧЬ СЕБЯ ОТ ЖАРЫ

Лето – это прекрасная пора для отдыха. Солнечные лучи дают бесплатный солярий для загара и большую порцию витамина D. Но также являются источником различных заболеваний. В нашей статье мы расскажем, что делать, если перегрелся на солнце и симптомы перегрева у взрослого.

Организм человека устроен так, что идеальная для жизни температура составляет 36,7 градуса. В жаркую погоду лишнее тепло выходит через пот. При нарушении водно-солевого баланса охлаждение организма не происходит. Это приводит к нарушению сердечно-сосудистой системы. Итог всего – остановка сердца или инсульт. Естественная терморегуляция может быть нарушена по следующим причинам: когда человек мало пьет охлаждающей жидкости, если в теплую безветренную погоду тепло одет, продолжительное время находится на улице с непокрытой головой под воздействием прямых солнечных лучей, что и ведет к перегреванию на солнце, работает в душном непроветриваемом помещении без кондиционера. Заболевание может наступить не только в открытых водоемах, но и на рабочем месте, во время прогулки по городу. Внешними признаками перегрева у взрослого являются: гипертермия организма обусловленная солнечным или тепловым ударом. Необходимо различать эти два вида, чтобы вовремя и качественно помочь пациенту. При этом первая помощь будет отличаться друг от друга. Человеку для того чтобы получить тепловой удар в жаркую погоду необязательно находиться под палящим солнцем. Он может заболеть и в душном, плохо проветриваемом помещении. Происходит затруднение кровотока вследствие сгущения крови и нехватки кислорода в мозгу. Если у вас наблюдаются некоторые из перечисленных симптомов, то необходимо срочно обратиться к врачу. Различаются несколько стадий теплового удара: Первая. У больного отмечается тошнота, головная боль, учащенное сердцебиение и дыхание. Вторая. Начинается рвота, температура тела достигает 40 градусной отметки, наступает обморочное состояние. Третья. Самая опасная стадия, которая может возникнуть в кому больного. У него наблюдается бредовое состояние, спутанность сознания. В отличие от теплового удара, человеку становится плохо от длительного пребывания на улице под раскаленными лучами без головного убора. От перегрева на солнце в данном случае страдает не весь организм, а только мозг, где расширяются кровеносные сосуды. Температура тела постепенно может достичь 42 градусов. В первую очередь поражается центральная нервная система, так как при нагревании головы артерии мозга расширяются, а мелкие сосуды разрываются. Это ведет к патологическому процессу во всем организме. При не вовремя оказанной первой помощи, пациент может не дожидаться приезда «неотложки». В 30 процентах случаев человек погибает. Лечение

должны заниматься реаниматолог, невролог и педиатр. Необходимо знать признаки перегрева на солнце: повышается или понижается артериальное давление. При втором случае у больного присутствуют тошнота и рвота. У пациента наступает слабость, сонливое состояние, присутствует вялость. Возникает головокружение, «черные точки» в глазах. Трудно сосредоточиться на одном объекте, нарушается координация при движении. Повышается температура, которая может достичь сорока градусов. Учащаются сердцебиение и дыхание. Возможны галлюцинации. Мучает жажда. Отмечается бледность кожного покрова лица и шеи. В тяжелых случаях пациент теряет сознание, бредит. Сильная головная и мышечная боль. Мы рассказали о симптомах, когда человек перегрелся на солнце. Признаки могут быть слабее или сильнее в зависимости от возраста пациента и биологических особенностей организма. Серьезные последствия чаще бывают у детей и пожилых людей. Без своевременной медицинской помощи больной погибает. В жаркую погоду необходимо исключить из рациона алкогольные напитки, кофе, газированный лимонад. Пересмотрите свой режим питания, кушайте отварную рыбу, молочные продукты, фрукты. Не употребляйте в жару тяжелое жареное мясо, копчености, маринованные и соленые овощи. Не выходите без необходимости на улицу. Почаще дома принимайте водные процедуры. Следующий вопрос как не допустить перегрева на солнце. Выбирайте одежду из натуральных дышащих тканей, таких как: хлопок, лен, поплин. Они не удерживают лишнюю влагу, не прилипают к телу. При выходе на улицу не забывайте про головной убор. Это может быть легкая кепка, панам, соломенная шляпка или косынка. Заниматься плаванием можно только в утренние часы с 9 до 11 и после обеда с 16 до 19. Постарайтесь не выходить из помещения, когда солнце находится в самом зените. Сократите физические нагрузки, занятия спортом. В жаркую погоду категорически запрещено употребление алкогольных напитков. Употребляйте больше жидкости, чтобы не случилось обезвоживание. Лучшее всего охлаждает организм прохладный душ. Не перекармливайте. Кушайте небольшими порциями 5-6 раз в день. Еда должна быть нежирной и низкокалорийной. Старайтесь завтракать рано утром, а ужинать в 8 часов вечера. Начинать свой день с употребления легкой молочной каши из овсяной, гречневой или пшенной крупы. Если вы страдаете гипертонией, то носите в сумочке необходимые лекарства и тонометр для измерения артериального давления.

Материал взят из интернета.

ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ

Проблема здоровья человека является одной из самых актуальных и глобальных проблем современности. Но вместе с тем следует отметить, что проблемой ценности здоровья человека были озабочены еще в глубокой древности и оно является одной из вечных проблем общества. Для поиска путей гармонизации разума и тела, в первую очередь требуется теоретическое и методологическое осмысление темы здоровья.

Также здоровье человека оценивается по таким факторам как полное физическое здоровье организма, социальное благополучие, а также наличием форм полноценного проявления жизни. При этом здоровье оценивается не только по отсутствию болезней или физического дефекта, но и по наличию полного душевного, физического и социального благополучия. Различные показатели здоровья оказывают влияние на состояние здоровья человека. Прежде всего, чтобы поддерживать хорошее физическое состояние и быть эмоционально и духовно здоровым, необходимо обратить внимание на естественную и социальную среду обитания. Также, на здоровье человека могут влиять другие факторы. К таким факторам относятся: генетика, лекарственные средства,

экология, климат, флора, ландшафт, образ жизни, а также физический, биологический, химический факторы. Эти факторы, в свою очередь, подразделяются на следующие виды: социально-экономические, экологические, наследственные заболевания вызванные нарушениями ДНК человека, наличие аномалий, генетические, медицинские – уровень оказания медицинской помощи населению, периодичность и качество обследований, профилактика заболеваний. По экспертной оценке, Всемирной Организации Здравоохранения, состояние здоровья каждого человека зависит от 4-х факторов: заложенный в организм генной программы – на 20 %, экологии – на 20 %, медицинского сервиса – на 10 %, при этом ведущее значение имеет образ жизни который составляет 50 %. Здоровье – это результат слажен-

ной работы всех систем организма и человека. Поэтому основные принципы здорового образа жизни должны стать частью мировоззрения каждого. Здоровый образ жизни - это образ жизни человека, направленный на профилактику болезней и укрепление здоровья. Сюда входят все сферы человеческого существования – начиная с питания и заканчивая эмоциональным настроением. Здоровый образ жизни – это способ жизнедеятельности, направленный на полное изменение прежних привычек, касающихся еды, режима физической активности и отдыха. Актуальность здорового образа жизни обусловлена возрастом и изменением характера нагрузок на человеческий организм в связи с увеличением рисков техногенного и экологического характера и усложнением социальной структуры. В те-

кущей ситуации забота о здоровье и самочувствии индивидуума связана с выживанием и сохранением человека как вида. Ни один график здоровой жизни не может включать в себя отдых ко сну после полудня и пробуждение в 2 часа дня по выходным. Если вам не хватает времени на дела в течение суток, нужно либо уменьшать количество дел, либо выполнять их быстрее. Для этого нужен систематический подход к распределению времени. Рациональный режим труда и отдыха предполагает разумное чередование периодов физического и умственного напряжения с периодами полного расслабления. Другими словами – сон должен быть полноценным (7-8 часовым для взрослого человека) и таким же полноценным должен быть отдых в выходные дни. Здоровый образ жизни также оз-

начает психологическое равновесие. Сегодня многие люди просто в связи с быстрым темпом жизни не уделяют времени для того, чтобы обратить внимание на свое здоровье. Несмотря на то, что впервые термин «психологическое здоровье» был использован в работах И. В. Дубровиной ещё 1987 году до сих пор существует проблема с определением данного понятия. Основная цель психологии здоровья – это сохранение, укрепление и развитие духовной, психической, социальной и соматической составляющих здоровья. Иными словами, индивид на каждом этапе жизни должен выстраивать гармоничные взаимоотношения в соответствии со своим познанием мира и действительностью. Наиболее полная и структурированная гуманистическая концепция здравоохранения проанализирова-

на в научных трудах А. Маслоу, О. В. Хухлаевой в 2001 году, а также работав В. А. Ананьева. Следует отметить, что психическое и психологическое здоровье следует рассматривать не только как проблему психологии или биологической медицины, но и как проблему мировоззренческую. Отсюда следует, что здоровье должно стать важнейшей мировоззренческой и ценностной ориентацией человека. Это позволяет подчеркнуть значимость человека, как субъекта собственного здоровья в современном мире. В конце своего рассказа хочу призвать всех тех, кто не безразличен к своему психологическому здоровью стараться избегать непредвиденных негативных ситуаций и стрессов в своей жизни. Это является залогом долгой и счастливой жизни.

Наргизахон ЭРГАШЕВА, психолог.





ИТОГИ РЕГИОНАЛЬНОЙ МЕЖОТРАСЛЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОЙ ЯРМАРКИ

В результате проводимых в нашей стране реформ в сфере экономики, значительно увеличилось производство сельскохозяйственной и промышленной продукции. Обладая большим людским капиталом и значительным промышленным потенциалом, регион Ферганской долины, вносит значительный вклад в экономику страны.

В соответствии с постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 мая 2023 года: «О мерах по организации и проведению региональных и республиканских межотраслевых промышленных ярмарок в 2023 году», 16-17 июня текущего года в городе Фергана состоялась региональная межотраслевая ярмарка. Площадкой для проведения данной ярмарки была выбрана территория центра по подготовке к Олимпийским и параолимпийским видам спорта города Ферганы. Проведение подобных выставок является не только важнейшей площадкой общения товаропроизводителей, но и местом продвижения новых технологий и товаров как на внутреннем рынке, так и за её пределами. Также проведение подобных промышленных ярмарок служит стратегическим интересам государства, таким как технологическое развитие по приоритетным направлениям, поддержка собственных производителей промышленной продукции как на внутреннем, так и на международных рынках, повышение уровня доверия к национальному производителю, формирование позитивного имиджа страны. Кроме того, с помощью таких выставок могут быть реализованы наиболее эффективные решения по промышленной кооперации.

На проходившей в Фергане промышленной ярмарке были представлены химическая, нефтегазовая, электро-

техническая, коженно-обувная, текстильная и шёлковая отрасли промышленности, а также индустрия по производству строительных материалов. Всего на ярмарке принимали участие около 200 промышленных предприятий со всех регионов Узбекистана.

Особого внимания заслуживает масштабная выставка, организованная АО «Uzkimyosanoat», которой было выделено 64 кв.м. выставочных площадей, где была продемонстрирована вся производственная мощь и потенциал предприятий химической отрасли. В данном выставочном павильоне показали свою продукцию 8 крупных предприятий входящих в структуру АО «Uzkimyosanoat». Среди которых были такие гиганты индустрии как АО «Farg'onaazot», АО «Navoiyazot», АО «Maxsam-Chirchik», АО «Amnifos-Maxsam», ООО «Первый резинотехнический завод», АО «Дехканабадский калийный завод», ООО СП «Кунградский содовый завод» и ООО «Кызылкумский фосфоритовый комплекс». Необходимо отметить, что среди всего многообразия представленной химической продукции, минеральные удобрения и другая продукция выпускаемая АО «Farg'onaazot» вызвали большой интерес у посетителей ярмарки, в особенности у отечественных сельхозпроизводителей. Также в числе посетителей ярмарки были гости из Ре-



спублики Кыргызстан.

Стенды павильона АО «Uzkimyosanoat» были по достоинству оценены организаторами ярмарки по итогам которого, хокимом Ферганской области Хайрулло Бозоровым, был вручен диплом «Самый

лучший стенд». Затем слово было предоставлено главному специалисту департамента локализации и промышленной кооперации АО «Uzkimyosanoat» Хайитбаеву Рустамбеку, который поблагодарил организаторов ярмарки за

высокий уровень подготовки и проведения ярмарки, а также за предоставленную возможность вочью познакомиться с производимой в стране продукцией, провести дискуссии и переговоры с потенциальными потребителями продукции химпрома. Организация таких ярмарок, безусловно, важна для дальнейшего развития деятельности предприятий химической отрасли. Это позволяет формировать новые бизнес-идеи. В то же время ярмарка также стала площадкой для обмена мнениями и опытом.

Подытоживая своё выступление, он выразил уверенность что данная, ярмарка даст толчок для стимулирования производства импортозамещающей продукции, расширения локализации, а также расширения связей промышленной кооперации между предприятиями Узбекистана.

12 декабря 2014 года Генеральная Ассамблея ООН провозгласила 21 июня Международным днем йоги. Внесённая Индией резолюция была поддержана всеми 175 государствами, представленными на Генеральной Ассамблее. 21 июня 2015 года всё мировое сообщество любителей и профессионалов йоги впервые отметило Международный День Йоги.

ЙОГА ЭТО — ГАРМОНИЯ ЧЕЛОВЕКА С САМИМ СОБОЙ, МИРОМ И ПРИРОДОЙ



В этом году в АО «Farg'onaazot» мероприятие состоялось на открытой футбольной площадке что находится напротив здания учебного центра. Организатором выступил Совет союза молодёжи предприятия. На мероприятии приняли участие как руководители, так и обычные работники предприятия. Необходимо отметить что йога берёт своё начало с древних традиций Индии. Она воплощает в себе единство души

и тела, мысли и действия, а также гармонию между человеком и природой и целостный подход к здоровью и благополучию. Подытоживая мысль скажем что в данном случае через комплекс физических упражнений, достигается гармония человека с самим собой, миром и природой. Если мы поменяем наш образ жизни и создадим новый образ сознания - это поможет всеобщему благополучию.

ЧЕЛОВЕК труда

В сегодняшнем очерке мы расскажем об аппаратчике подготовки сырья, отпуска полуфабрикатов и готовой продукции цеха по производству азотной кислоты Эминжонове Икром Гуломовиче, который за время своей трудовой деятельности не только показал себя как грамотный специалист, но и стал наставником для молодых рабочих, активно участвующим в общественной жизни предприятия, а также хорошим семьянином, воспитавшим четырех прекрасных дочерей.

Так сложилось, что герою нашей статьи Эминжонову Икрому после окончания средней школы и прохождения службы в армии для поддержки семьи пришлось рано начать работу. Начиная свою трудовую деятельность на предприятии с обычных рабочих профессий, работал честно, добросовестно относился к поставленным задачам, но со временем стал понимать, что для того чтобы стать квалифицированным специалистом необходимо учиться. Так в 1996 году Икром Гуломович поступает в вечернее отделение Ферганского нефтяного техникума и через 3 года совмещая работу с учёбой успешно оканчивает данное учебное заведение и с дипломом техника-механика продолжает работу на предприятии. Долгие годы он работал в цехе АК-72 М, где благодаря ответственному отношению к делу и стараниям стал оператором ДПУ. В этом цехе после ввода в эксплуатацию опытно-промышленной установки азотно-фосфорных удобрений, а затем и НРК он и проработал до перевода в цех АК-72 М в 2014 году. Как известно цех АК-72 М является одним из самых важных производственных цехов предприятия,

а работа аппаратчика Эминжонове Икром по роду деятельности непосредственно связана с введением технологического процесса подготовки сырья, отпуска полуфабрикатов и готовой продукции в производство. И здесь необходимо отметить, что в этом месяце исполняется ровно 9 лет как он работает в этом цехе аппаратчиком. На такой столь ответственной работе как известно случайных людей не бывает и это были годы безупречной работы. Как характеризует его ведущий инженер технолог цеха АК-72М Дониёр Тожибоев, Икром Гуломович, является примером ответственного и грамотного специалиста. Его компетентность и профессионализм в работе не остаются незамеченными как начальством, так и коллегами. Он всегда готов оказать помощь молодым специалистам цеха, давать дельные советы и наставления по работе. Его работа по наставничеству молодёжи заслуживает особого внимания, на сегодняшний день в цехе работают такие молодые специалисты как Тўхлиев Боходир, Акрамов Зиёдилло, Солиев Мирзаали, которые в своё время переняли опыт работы и азы

профессии у Эминжонове Икром.

Кроме того, он принимает активное участие в общественной жизни коллектива, вот и сейчас с радостью откликнулся на просьбу принять участие в благоустройстве детского оздоровительного комплекса «Кимёгар».

Эминжонов Икром не только любит свою работу, но и уделяет много времени своей семье. Он — заботливый и ответственный отец, воспитавший четырех образцовых дочерей. Он умеет балансировать между работой и семьей и всегда находит время для своих близких, поэтому его можно смело считать образцовым семьянином.

Его жизненный путь и трудовая биография является живым примером для молодёжи как ответственного, грамотного работника и вместе с тем скромного человека. Биография нашего героя — отличный пример человека, который может быть полезным как для своей семьи, так и для коллег и общества в целом.

Материалы 3-й и 4-й полос подготовил Отабек БЕГИДЖАНОВ.

Kimyogar



MUASSIS:
«Farg'onaazot»
aksiyadorlik jamiyati

ISSN 2010-9830

Bosh muharrir:
E'zozxon ABDULLAYEVA.

Manzil: 150108,
Farg'ona shahri,
Sanoat ko'chasi, 222.
«Farg'onaazot» AJ.
Tel.: 242-66-01; 65-33

Gazeta Farg'ona viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 7-mayda 12-082 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Gazeta «Poligraf-Press» MCHJ bosmaxonasida 2000 nusxada ofset usulida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Marg'ilon shahar, Turkiston ko'chasi 236 «B» - uy. Qog'oz bichimi A-2. Buyurtma: ____-son.

Bosmaxonaga topshirish vaqti: soat 9:00. Bosishga ruxsat etildi: soat 11:00. 26.06.2023-yil.

Ushbu songa mas'ul: E'zozxon ABDULLAYEVA.

Rasmlar muallifi: Mirjalol G'ULOMNAIROV.

Ushbu gazeta «Farg'onaazot» AJ ishchi-xodimlariga bepul tarqatiladi.